

## **ARAB TILIDA FE'L SO'Z TURKUMI**

**Abdullahjonova Mehrizoda Jamoliddin qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi

abdullahjonovamehrizoda@gmail.com

**Umurzakova Oygu Umarovna**

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

*Annotation.* Ushbu maqolada arab tilidagi fe'l so'z turkumi va uning grammatical xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada fe'llarning morfologik tuzilishi, ularning ma'nosi, qo'llanishi va fe'l shakllarining turli grammaticalik vazifalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, arab tilida fe'lning zamon, shaxs, son va holat kabi kategoriylar bilan bog'lanishi va fe'l tizimining sintaktik xususiyatlari ham o'r ganiladi. Tadqiqot arab tilini o'r ganayotgan talabalar uchun nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan boyitadi va fe'l tizimining murakkab jihatlarini tushunishda yordam beradi.

**Kalit so'zlar va iboralar:** arab tili, fe'l so'z turkumi, fe'l shakllari, zamon, shaxs-son.

**Аннотация.** В данной статье анализируются грамматические особенности глагольной категории арабского языка. Рассматриваются морфологическое строение глаголов, их значение, использование и различные грамматические функции глагольных форм. Также исследуются связи глаголов с такими категориями арабского языка, как время, лицо, число и состояние, а также синтаксические особенности глагольной системы. Исследование обогащает теоретические знания студентов, изучающих арабский язык, и помогает понять сложные аспекты глагольной системы.

**Ключевые слова и фразы:** арабский язык, глагольная категория, глагольные формы, время, лицо-число.

*Annotation.* This article analyzes the verb category and its grammatical features in the Arabic language. It examines the morphological structure of verbs, their meanings, usage, and the various grammatical functions of verb forms. The study also explores how verbs are connected to categories such as tense, person, number, and state, as well as the syntactic characteristics of the verb system. This research enriches theoretical knowledge for students studying Arabic and helps in understanding the complex aspects of the verb system.

**Keywords and phrases:** Arabic language, verb category, verb forms, tense, person-number.

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning adabiy til me'yirlari johiliyat davrida shakllangan. Biroq uning grammatical qoidalari milodning VII-IX asrlarida yaratilgan.

Arab tilida so‘z turkumlari bor -yo‘g‘i 3 ta bo‘lib ular:

- Ismlar (ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh va masdarlar)
- Fe‘l
- Harflar (yordamchi so‘zlar, qo‘shimchalar)

Narsa-hodisalarining harakat-holatini bildiruvchi fe‘l so‘z turkumi arab tilida boshqa tillardagidan keskin farq qiladi. Ushbu so‘z turkumi arab tili grammatikasida katta o‘rin tutadi, chunki juda ko‘p boshqa so‘z turkumlari fe‘llardan yasaladi.

Arab tili grammatikasining markaziy unsurlaridan biri bu fe‘l so‘z turkumidir. Fe‘l so‘zlar arab tilining sintaksisida muhim rol o‘ynaydi va jumla tuzilishining asosiy qismini tashkil etadi. Fe‘lning grammatik shakllari va ularning turlari, jumladagi o‘rni va fe‘lning boshqa so‘zlar bilan o‘zaro aloqasi tilning strukturaviy xususiyatlarini belgilaydi.

Fe‘l jumlaning markaziy tarkibiy qismi sifatida, aksariyat hollarda, harakat yoki holatni ifodalaydi. Fe‘lning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u zamon, shaxs, son, holat kabi grammatik kategoriyalarni o‘zida aks ettiradi.

### **Fe‘llarning o‘zak tarkibi**

Fe‘llar tarkibidagi o‘zak undoshlarining soniga ko‘ra uch yoki to‘rt o‘zak undoshli fe‘llarga bo‘linadi. Fe‘llarning ko‘pchilagini uch o‘zak undoshli fe‘llar tashkil etadi. Masalan:

Uch o‘zak undoshli fe‘llar— كتب، فتح، جلس

To‘rt o‘zak undoshli fe‘llar— دحرج، زلزل، وسوس

Arab tilida fe‘llarning ma’no turlari harakatlarni o‘zgartirish, biror o‘zak tovushini ikkilantirish yoki boshqa nozak undoshlarni kiritish orqali hosil qilinadi.

Ushbu hosila shakllari fe‘lning ma’nosida ham o‘zgarish sodir etadi.

### **Arab tilida fe‘llarning boblari**

O‘zbek tili grammatikasida fe‘lning ma’no turlarini hosil qiluvchi shakllar arab tilida fe‘lning boblari deb qabul qilingan. Arab tilida uch o‘zak undoshli fe‘llarning 15 ta, to‘rt o‘zak undoshli fe‘llarning esa 4 ta bobbi mavjud.

Arab tadqiqotchilari uch o‘zak undoshli fe‘llarning boshlang‘ich shaklini فعل ثلاثي , to‘rt o‘zak undoshli fe‘lning boshlang‘ich shaklini esa فعل رباعي مجرد deb, qolgan boblarni esa bobning harakat nomi (masdari) atamasi bilan ataganlar, masalan: باب التفعيل باب taf‘il bobbi” ”الفعل باب“ iftial bobbi” va hokazo. Zamonaviy adabiyotlarda fe‘llarning ushbu boblari rim raqamlari bilan ifodalanadi. Masalan:

I bob, VII bob, XI bob va h.z.

Fe‘l arab tilida o‘zining morfologik tuzilishi bilan ajralib turadi. Fe‘lning shakllanishi fe‘lning ildiziga asoslanadi va shu ildizga turli qo‘shimchalar qo‘shiladi.

### **Fe‘llarning tuslanishi**

Fe‘llarning barcha boblari o‘tgan va hozirgi-kelasi zamonda tuslana oladi. Shuningdek ular shaxs va sonda jinsda o‘z shakllariga ega. Arab tilida fe‘llarning aniq va majhul nisbat shakli mavjud. Misol:

Yozdi (u.muzakkar) – كتب

Yozildi (u.muzakkar) – كتّب

Bundan tashqari fe'llar 5 ta maylga ega.

### **Fe'lning noaniq shakli**

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, boshqa tillarda bo'lgani kabi arab tilida fe'lning noaniq shakli mavjud emas. Lug'atlarga kiritish uchun shartli ravishda uchinchi shaxs birlik muzakkarr shakli fe'lning noaniq shakli sifatida olingan. Masalan:

ذهب

Asl ma'nosi: *u (muzakkarr) bordi.*

Shartli ma'nosi: *bormoq.*

Shartli ma'nosi ko'pincha uyushiq bo'lak kabi sanab o'tilganda bilinadi.

### **Arab tilida fe'l zamонлари**

Arab tilida fe'l uchta zamonga ega:

1. O'tgan zamon (الماضي):

Bu zamon fe'lning ma'lum shakli o'tgan vaqtdagi harakatni ifodalaydi.

2. Hozirgi va kelasi zamon (المضارع):

Bu zamon hozirgi yoki kelajakda sodir bo'ladigan ish-harakatni ifodalaydi.

3. Buyruq zamon (الأمر):

Bu zamon ish-harakatni bajarishni buyurish yoki talab qilish uchun ishlataladi.

الْأَمْرُ	الْمُضَارِعُ	الْمَاضِي	
إذْهَبْ	يَذْهَبُ	ذَهَبَ	١
إسْرَخْ	يَسْرَخُ	سَرَحَ	٢
إفْتَحْ	يَفْتَحُ	فَتَحَ	٣
إفْعَلْ	يَفْعُلُ	فَعَلَ	٤
أَدْرُسْ	يَدْرُسُ	دَرَسَ	٥

Fe'lning shaxs, son va holatga qarab o'zgarishi arab tilidagi fe'l tizimining asosiy xususiyatlaridan biridir. Har bir fe'l shaxsga, songa va holatga ko'ra shakllanadi. Misol uchun:

- Fe'lning shaxsga moslashuvi:
- *Men o'qiyapman:* أَقْرَأْ (ana aqra'u).
- *U o'qiyapti:* يَقْرَأْ (huwa yaqra'u).
- Fe'lning songa moslashuvi:
- *Ular o'qiyaptilar:* يَقْرُؤُونَ (hum yaqra'un).
- *U o'qiyapti:* يَقْرَأْ (huwa yaqra'u).

Fe'l jumlada asosan kesim vazifasini bajaradi. Fe'lning sintaktik vazifalari uning harakat yoki holatni ifodalashdagi o'rni bilan bog'liq. Fe'l, shuningdek, jumlaning strukturasi va ma'nosiga qarab o'z o'rnini o'zgartirishi mumkin.

Arab tilidagi fe'l so'z turkumi tilning grammatik tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Fe'lning morfologik shakllanishi, zamon, shaxs, son va holat kabi kategoriyalar bilan bog'lanishi, shuningdek, fe'lning sintaktik vazifalari arab tili grammatikasining asosini tashkil etadi. Tadqiqot fe'l so'z turkumining arab tilidagi o'rni va uning grammatik tahlili bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Fe'l tizimining turli shakllari va kategoriyalarining chuqur tahlili arab tilini o'rganayotganlar uchun foydali manba bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019, (86-89, 110-114 betlar).
2. Hikmatov A. Arab tili sarf qo'llanmasi. – Toshkent, 2007.
3. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (91-93 betlar).
4. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)